

MARKAZIY OSIYO VA TURKIY MAMLAKATLAR O'RTASIDAGI EKOLOGIK KUN TARTIBI BO'YICHA MASLAHAT QO'MITASI TO'G'RISIDA NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlar o'rtasidagi ekologik kun tartibi bo'yicha maslahat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - Maslahat qo'mitasi) bosh qarorgohi Toshkent shahrida joylashgan, unga kiruvchi Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlarning ekologik kun tartibiga jalb qilingan yoshlar tashkilotlari, birlashmalari, harakatlarining (keyingi o'rinlarda - Yoshlar hamjamiyatlari) faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

1.2. Maslahat qo'mitasi Osiyoda o'zaro hamkorlik, tinchlik va do'stlikni mustahkamlash uchun Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlikka ko'maklashish maqsadida tuziladi.

1.3. Ushbu Nizom zamirida ekologik hamkorlik Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar sohalarda barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim omili ekanligi haqidagi tasavvur yotadi.

2. Vazifalar va faoliyat yo'nalishlari

2.1. Maslahat qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

2.1.1. Yoshlar hamjamiyatlari o'rtasida samarali mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish;

2.1.2. Ekologik kun tartibini amalga oshirishda Markaziy Osiyo va Turkiy davlatlar yoshlarining ishtirokini rag'batlantirish;

2.1.3. Yoshlar hamjamiyatlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqotlar va aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashish;

2.1.4. Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlar yoshlarining manfaatlari yo'lida hamkorlik sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqish;

2.1.5. Yoshlar hamjamiyatlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida axborot almashish;

2.1.6. Yoshlar hamjamiyatlarining hamkorlik rejalari/dasturlarini ishlab chiqish;

2.1.7. Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlar yoshlari uchun loyihalarni amalga oshirish va tadbirlar, shu jumladan ommaviy kampaniyalar, loyihalar, davlatlararo yoshlar aksiyalarini o'tkazish, munozara klublari, davra

suhatlari, yoshlar forumlari, eko-oringohlar va konferensiyalarni tashkil etish.

3. Maslahat qo'mitasining tuzilmasi va faoliyat ko'rsatish tartibi

3.1. Maslahat qo'mitasi ikki organdan iborat. Maslahat qo'mitasining organlari - "Maslahat qo'mitasining Vasiylik kengashi" va "Maslahat qo'mitasiga a'zo davlatlarning vakillari". Maslahat qo'mitasining oliy mansabdor shaxsi "Maslahat qo'mitasi raisi" hisoblanadi.

3.1.1. Maslahat qo'mitasining Vasiylik kengashi tarkibiga Maslahat qo'mitasi raisi, Rais kotibi va har bir mamlakatdan bir nafar oliy mansabdor shaxs kiradi;

3.1.2. Maslahat qo'mitasi a'zo davlatlar vakillaridan – har bir davlatdan 2 kishidan iborat bo'ladi. Quyidagilar Maslahat qo'mitasiga tayinlangan a'zo davlatlarning vakillari hisoblanadi:

- davlat organlarining bir yoki bir nechta vakillari (mamlakatning Maslahat qo'mitasi faoliyatida ishtiroki uchun mas'ul bo'lgan davlat tashkiloti nomidan barcha hujjatlarga oid va tashkiliy masalalar bilan shug'ullanuvchi shaxslar),
- yoshlarga oid va ekologiya siyosatini amalga oshiruvchi jamoat yoshlar va boshqa tashkilotlar/birlashmalar/faollarning bir yoki bir nechta vakillari.

3.2. Maslahat qo'mitasiga a'zo davlatlarning vakillari o'z vazifalarini bajarish chog'ida tegishli yuboruvchi davlatning ichki normalariga amal qiladilar.

3.3. Maslahat qo'mitasining majlislari zaruriyatga ko'ra, lekin yiliga kamida ikki marta o'tkaziladi hamda Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlarning aksariyati ishtirok etgan taqdirda zarur kvorumga ega bo'ladi.

3.4. Maslahat qo'mitasi Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlarning istalgan birining tashabbusi bilan navbatdan tashqari majlislar o'tkazishi mumkin. Mamlakatlar Maslahat qo'mitasi raisiga navbatdan tashqari majlis o'tkazilishidan kamida 30 kun oldin majlisning kun tartibi, muddatlari va o'tkaziladigan joyi to'g'risidagi taklif bilan so'rov yuboradilar.

3.5. Navbatdagi va navbatdan tashqari majlis o'tkaziladigan joy va sana qabul qiluvchi davlat tomonidan ma'lum qilinadi.

3.6. Maslahat qo'mitasining qarorlari konsensus asosida qabul qilinadi va tavsiyaviy xususiyatga ega bo'ladi.

3.7. Maslahat qo'mitasiga a'zo davlatlar vakillarini xizmat safariga yuborish xarajatlarini yuboruvchi tomon qoplaydi.

3.8. Majlisni o'tkazishning tashkiliy-texnik ta'minotiga oid xarajatlar qabul qiluvchi tomon zimmasida bo'ladi.

4. Maslahat qo'mitasi raisi

4.1. Maslahat qo'mitasining raisi - Maslahat qo'mitasining yakuniy va yagona qarorini chiqaruvchi Maslahat qo'mitasining oliy rahbarlik lavozimidir. Maslahat qo'mitasi raisi Vasiylik kengashi bilan birgalikda va A'zo davlatlar vakillari bilan yaqin muvofiqlashuvda ish olib boradi.

4.2. Maslahat qo'mitasi raisi a'zo davlatlar vakillari orasidan saylanadi:

4.2.1. Maslahat qo'mitasi raisi lavozimiga nomzodlar Vasiylik kengashi tomonidan ilgari suriladi, har bir mamlakatdan bir nafar nomzod ko'rsatiladi;

4.2.2. Maslahat qo'mitasining navbatdagi raisi Vasiylik kengashi tomonidan alifbo tartibida qo'mitaga a'zo davlatlarning vakillari orasidan saylanadi. Navbatdagi majlis raisi Maslahat qo'mitasi majlisi vaqtida saylanadi;

4.2.3. O'z vazifalarini bajarmagan, a'zo davlatlarning vakillari tomonidan asoslangan shikoyatlar yoki o'z vazifalarini bajarishga imkon bermaydigan boshqa holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, Vasiylik kengashining qaroriga ko'ra Maslahat qo'mitasi raisi lavozimiga navbatdan tashqari saylov o'tkazilishi mumkin.

5. Maslahat qo'mitasi kotibi

5.1. Maslahat qo'mitasi kotibi - Maslahat qo'mitasi raisining o'rinbosari hisoblanadi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

5.1.1. Amalga oshirilayotgan ishlar monitoringi va ishchi hujjatlarni tuzish uchun mas'ul hisoblanadi;

5.1.2. Maslahat qo'mitasi majlislari kun tartibi loyihasini tayyorlaydi;

5.1.2. Qabul qiluvchi mamlakat bilan muvofiqlashgan holda Maslahat qo'mitasi majlislarini tashkil etish va bunday tadbirlarni texnik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash bilan shug'ullanadi;

5.1.3. Maslahat qo'mitasi majlislarida qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

5.1.4. Maslahat qo'mitasi Raisi, Vasiylik kengashi va Maslahat qo'mitasiga a'zo davlatlar vakillarini Maslahat qo'mitasi majlislarida qabul qilingan hujjatlarning nusxalari bilan ta'minlaydi.

5.2. Kotib Maslahat qo'mitasining majlisida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlarning tegishli davlat tuzilmalari va/yoki yoshlar tashkilotlari/birlashmalari/harakatlarining vakillarini taklif qilishi mumkin.

5.3. Maslahat qo'mitasi kotibi Maslahat qo'mitasi Raisi tomonidan Maslahat qo'mitasiga a'zo davlatlarning vakillari orasidan ushbu lavozimga saylanganidan keyin tayinlanadi.

6. Yakuniy qoidalar

6.1. Ingliz, rus tillari Maslahat qo'mitasining ishchi tillari hisoblanadi.

6.2. Imzolash yoki qabul qilish uchun rasmiy hujjatlarning tili ingliz tili hisoblanadi.

6.3. Ushbu Nizom Vasiylik kengashi tomonidan qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6.4. Maslahat qo'mitasi Vasiylik kengashining qaroriga ko'ra va Maslahat qo'mitasiga a'zo davlatlar vakillarining tavsiyasiga ko'ra ushbu Nizomga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Tegishli qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.